



Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

YONG'OQ O'SIMLIGI BIOLOGIYASI VA BOTANIKA DARSLARIDA YONG'OQ O'SIMLIKLARIDAN MAHALLIY MATERIAL SIFATIDA FOYDALANISH

U.Rahmonqulov¹ Joniqulov.M²

JDPI. b.f.d.prof.

JDPI.Biologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

INFO:

Qabul qilindi: 23.03.2022

Ko'rib chiqildi: 24.03.2022

Chop etildi: 24.03.2022

Kalit so'zlar: *Bodom, Shirin mag'izli bodom, Bo'stonliq bodom, Ertagi — Buxoro bodomi, Achchiq bodom, Qilichnusxa bodom*

ANNOTATSIYA

Maqolada bodom o'simligining yurtimizdagi navlari haqida ma'lumotlar berilgan hamda botanika darslarida bodom o'simligini mahalliy material sifatida keng foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

Annotation. The article provides information about the varieties of almonds in our country and the importance of the widespread use of almonds as a local material in botany classes.

Keywords. *Amygdalus L., A.communis L., Bostonlik almonds, Ertagi - Bukhara almonds, Bitter almonds, Kilichnuska almonds.*

Maktablarda botanika fanini o'qitishda mahalliy materiallardan foydalanish milliy qadriyatlarimizni o'rganishning bir ta'limiy yo'nalishi sifatida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar botanika fanidan o'simlik haqida to'liqroq tushunchaga ega bo'lishlari uchun atrof muhitda ko'p uchraydigan o'simliklar misolida mavzuni tushuntirsa o'quvchilar yaxshiroq tushunadi. Xususan

ra'nodoshlar oilasi mavzusini o'qitishda oilaga mansub bodom o'simligini o'quvchilarga kengroq tushuntirsa ijobiy natijaga erishamiz chunki yurtimizda ko'plab hududlarida bodom o'simligining ko'plab navlari o'sadi.

Bodom (*Amygdalus L.*) — ra'nodoshlar (anorgullilar oilasi)ga mansub daraxt va butalardir. 40 ga yaqin turi ma'lum. Osiyo, Shimoliy hamda Markaziy Amerikada, Yevropaning janubida, Zakavkazye, O'rta Osiyoda tarqalgan. O'zbekistonda 5 turi mavjud. Ulardan bittasi — shirin mag'izli bodom (*A. communis L.*) ekiladi, qolganlari yovvoyi holda uchraydi. O'zbekistonning dengiz sathidan 1000–1200 m gacha bo'lgan tog'li zonalarida (Farg'ona vodiysi, Surxondaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlarida) o'stiriladi. Daraxti 6–10m, shox-shabbasi piramidasimon yoki tarvaqaylagan. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, barglari nashtarsimon. O'suv va meva novdalari chiqaradi.

Erta bahorda, barg chiqarishdan oldin gullaydi. Guli oq yoki pushti, ikki jinsli. G'oyat yorug'sevar va qurg'oqchilikka chidamli. Chetdan changlanganda yaxshi hosil beradi. Mevasi (bodomi) po'st (pishganda yorilib ketadi) bilan qoplangan qattiq qobiqli danak (yong'oqcha). Iyul—sentabrda pishadi. Bodomi 0,5—4 g (mag'zi 12—80%). Mag'zi tarkibida 35—67% yog', 30% gacha oqsil moddalar, shuningdek qand, yelimsimon moddalar (achchiq bodom tarkibida 2,5% gacha amigdalin) bor. Po'chog'i naviga qarab yupqa (g'alvirak), o'rtacha va qattiq, mag'zi shirin yoki achchiq bo'ladi.

Bodom asosan, shirin mag'zi uchun yetishtiriladi. Bodom mag'zi iste'mol qilinadi, konditer sanoatida, moyi tibbiyotda, achchiq mag'iz bodomdan olinadigan efir moyi kosmetika sanoatida, po'chog'i likyor, konyak va vinolar rangi va ta'mini yaxshilashda ishlatiladi. Bodom 100, hatto 130 yilgacha yashaydi. Ko'chati danakmevalilar (shaftoli, olcha, o'rik) yoki achchiq bodom danagini ekib olingan nihollarga shirin bodom navlarini payvand qilish yo'li bilan yetishtiriladi. Ko'chati kuzda yoki bahorda 8×6, 8×8, 10×10 m sxemada ekiladi. Soz va toshloqi tuproqli, sug'oriladigan bo'z yerlarda yaxshi o'sadi. Ekilgan yili 8—10-marta, hosilga kirgach, 4—6-marta sug'oriladi. Shox-shabbasiga siyrak yarusli, ba'zan kosasimon shakl beriladi. Daraxti 4—5 yildan boshlab meva beradi. 12—15 yili to'liq hosilga kiradi. Bir tupidan 60–80 kg gacha hosil olinadi. Daraxti 20—25° sovuqqa bardosh beradi.

O'zbekistonda ekiladigan asosiy navlari. Bo'stonliq — shaftoli bilan chatishtirish natijasida yetishtirilgan. Bodomi 2 g keladi. Po'chog'ining qalinligi o'rtacha, mag'zi shirin. «Bo'stonliq» ertapishar, mag'zi yirik va shirin. U tog' sharoitiga moslashgan, sovuq va kasalliklarga chidamli. Ertagi — Buxoro bodomini oddiy bodom bilan chatishtirib olingan. Erta gullaydi, mevasi iyulda pishadi. Mag'zi shirin. Sovuqqa chidamli. G'alvirak (yupqapo'choq) — bodomning o'rtacha og'irligi 1,9 g, mag'zi to'q, erta gullaydi, mevasi avgustda pishadi, sovuqqa chidami o'rtacha bodomning Yalta, Kosmos, Nikitskiy 62, Turkmenistan a'losi kabi navlari ham ekilmoqda. «Qilichnusxa» — mahalliy kechpishar nav. U 3-4 yilda hosilga kiradi. Po'sti yumshoq, kasallik, sovuq va qurg'oqchilikka chidamli. Boshqa navlarga nisbatan mag'zi shirin.

Bodom qadim zamonlardan beri shifobaxsh vosita sifatida xalq tabobatida qo'llanilib kelinadi. Xususan, shirin va achchiq bodom mag'zi, po'chog'i, yog'i, shuningdek, ildizining po'stlog'i ko'p qo'llanilgan. Bodom mag'zi, asosan, darmon beruvchi, yallig'lanishning oldini oluvchi, yaralarni tuzatuvchi, yumshatuvchi hamda zaharni kesuvchi sifatida iste'molda bo'lgan. Arab tabibi Ibn Massuiy qovurilgan bodom bilan ichaklardagi dardlarni davolagan. Yana bir arab tabibi Abu Mansur

esa bodomni siydik ajralishining qiyinlashuvida, shakar bilan aralashganini esa urug`ni ko`paytirishda qo`llagan. Ibn Sinoning yozishicha, barcha turdagi bodomlar, jigardagi va buyrakdagi tiqilmalarni ochib, tozalaydi. Biroq shirin bodomning ta`siri achchiq bodomnikiga qaraganda kuchsizroq bo`ladi.

Yangi po`stloqli bodomni iste`mol qilish me`dani tozalaydi. Bodom yog`iga binafsha ildizini aralastirib ichish esa buyrak, qovuqni tozalab, toshlarni maydalaydi. Bodom ko`zni ravshan qiladi.

Achchiq bodom sepkil, quyoshdan teri kuyishi, qontalashlarni ketkazadi Uning ildizidan qilingan qaynatma sepkillarni ketkazishda yaxshi yordam beradi. Bodom yog`i ko`krak saratoni, et cho`zilishi, quloqdagi og`riq, shang`illash, shovqinni bartaraf qiladi. Bodom ichki a`zolari tozalab, miya suyuqligini quvvatlaydi, ko`zni ravshan qiladi, astma (qand bilan), plevrit, ichaklardagi yaralarda yaxshi foyda qiladi., semirtiradi. Bodomdan tayyorlangan murabbo esa to`yimli va buyrak uchun foydalidir.

Xalq tabobatida shirin bodom urug`i, bodom yog`i, daraxtining guli va barglaridan keng foydalaniladi. Ich qotish, surunkali gastrit, kolit va surunkali bronxitda 5-6 qoshiq bodom yog`i ichish buyuriladi. Bodom o`pka yallig`lanishini davolashda ham yaxshi foyda beradi. Kamqonchilik, yo`tal, uyqusizlik, bosh og`rig`i, qo`l-oyoq ishlamasligi va bezgakning davosida tuyilgan shirin bodom yaxshi samara beradi. Bodom mag'zi tarkibida ko`p miqdorda moy emulsin fermenti , B1 va B2 vitaminlari qand,oqsil va boshqa moddalar bor .

Mamlakatimizda agrar sohada olib borilayotgan izchil islohotlar jarayonida bog`dorchilik tarmog`ini tubdan takomillashtirishga alohida e`tibor qaratilayotir. Olim va mutaxassislari kasalliklarga chidamli, mahalliy iqlimga mos, serhosil daraxt navlarini yaratish, mavjudlaridan oqilona foydalanishni asosiy maqsad qilib olgan R.R.Shreder nomidagi meva-sharbat, bog`dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-ishlab chiqarish korporatsiyasining Bo`stonliq tumanidagi tog`li bog`dorchilik va uzumchilik filialida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yerdagi ko`chatxona va tajriba-sinov maydonlarida bodom, yong`oq, uzum, olma, olxo`ri singari mevali daraxtlarning istiqbolli navlarini tuproq-iqlim sharoitimizga moslashtirishning ilmiy asoslari va texnologiyasi ishlab chiqiladi. So`nggi yillarda tog`li mintaqalarga xos mevali daraxtlarning ertapishar, qurg`oqchilik va sovuqqa chidamli 20 dan ziyod yangi navi yaratildi. Bodomning «To`ng`ich», «Tyan-Shan» kabi navlari shular jumlasidandir.

Toshkent viloyati Bo`stonliq tumanidagi tog`li bog`dorchilik va uzumchilik filialidan ma`lum qilishlaricha, yurtimizning tog`li hududlaridagi iqlim sharoiti yong`oq, olma, ayniqsa, bodomning o`sishi va yuqori hosil berishi uchun nisbatan qulaydir. Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo, Toshkent kabi tog`oldi viloyatlari va Farg`ona vodiysida mazkur daraxtlardan mo`l-ko`l hosil olish mumkin. Bodom 3-4 yoshda hosilga kirib, 60 yilgacha meva beradi. Bir tupning hosildorligi 200 kilogrammgacha yetishi mumkin. Bodom va uning mahsulotlaridan xalq xo`jaligining ko`plab tarmoqlarida, kosmetika va tibbiyot sanoatida foydalaniladi. U qurg`oqchilikka g`oyat chidamli bo`lib, suvsiz, toshloq va unumsiz tog` yonbag`irlarida ham yaxshi o`sadi. Bu yurtimizning tog`oldi lalmikor hududlaridagi fermer xo`jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligini va iqtisodiy manfaatdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Hozir filialda bodomning saralab ajratilgan 30 dan ortiq qimmatli hamda sun`iy chatishtirish yo`li bilan yetishtirilgan 14 xil istiqbolli navi parvarishlanmoqda. Tez hosilga kirishini ta`minlash maqsadida bodomning shaftoli bilan chatishtirilgan “Qilichnusxa”, “Bo`stonliq” kabi yangi, istiqbolli navlari yaratilmoqda.

Soha rivoji uchun o`rmon xo`jaliklari hududidagi bodomzorlar aholiga uzoq muddatga ijaraga

berilmoqda. Shuningdek, fermer xo‘jaliklari dalasi chetidagi toshloq, tashlandiq yer maydonlari va adirlik bag‘irlaridan unumli foydalanish hamda suv sarfini kamaytirish maqsadida bodomzorlar tashkil etilmoqda. Demak yurtimizda bodomzorlar maydonlari tobora kengayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Prатов U.P., Odilov T.O. Uzbekiston yuksak o‘simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va uzbekcha nomlari. - Toshkent, 1995. - 396.

2. Prатов U., Jumaev K. Yuksak o‘simliklar sistematikasi. - Tashkent. 2003. 144 b.

3. Komarnitskiy N.A., Kudryashev L.V., Uranov A. Botanika: sistematika rasteniye. M. “Prosveteniye”, 1975.

4. Taxtadjyan A.L. Sistema i filogeniya svetkovix rasteniye. - M - L., 1966. -611 s.

5. Flora Uzbekistana. 1-6 T. - Izd-vo «Fan», Tashkent, 1941-1962.

6. https://vaqt.ucoz.com/publ/o_39_simlik_olami/bodom_almond/19-1-0-306

7. <https://uz.warbletoncouncil.org/almendro-12913>

8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bodom>